

**HAMZA SHE'RIYATIDA MA'RIFATPARVARLIK
G'OYALARINING BADIY TALQINI**

Fazilat Mamadaliyeva

Namangan davlat universiteti, Musaqlizlanuvchi

mamadaliyevafazilat322@gmail.com

+998 94 306 65 62

Annotation. Ushbu maqolada XX asr boshlari badiiy tafakkur tarzini yangilashga hissa qo'shgan shoir, nosir va dramaturg Hamza Hakimzoda Niyoziy she'riyatiga xos alohida jihatlar va shoirning ma'rifatchilik g'oyalari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar. An'anaviy obraz, lirik kechinma, syujetli lirika, oshiq, ma'shuqa, raqib, novatorlik, traditsion tamoyil.

**ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИДЕЙ
ПРОСВЕЩЕНИЯ В ПОЭЗИИ ХАМЗЫ**

Фазилат Мамадалиева

*Наманганский государственный университет, Независимый
искатель*

[мамадалиевфазилат322@gmail.com](mailto:mamadaliyevafazilat322@gmail.com)

+998 94 306 65 62

Абстрактный. В данной статье поэт, прозаик и драматург Хамза Хакимзода Ниязи, внесший вклад в обновление художественного мышления начала XX века, проанализировал специфические аспекты поэзии Ниязи и просветительские идеи поэта.

Ключевые слова. Традиционный образ, лирический опыт, сюжетная лирика, возлюбленная, любовница, соперница, новаторство, традиционное начало.

**ARTISTIC INTERPRETATION OF ENLIGHTENMENTAL IDEAS
IN HAMZA'S POETRY**

Fazilat Mamadaliyeva

Namangan State University, Independent researcher

mamadaliyevafazilat322@gmail.com

+998 94 306 65 62

Annotation. This article analyzes the specific aspects of the poetry of the poet, prose writer and playwright Hamza Hakimzoda Niyoz, who contributed to the renewal of the artistic thinking of the early 20th century, and the poet's enlightenment ideas.

Keywords. Traditional image, lyrical experience, plot lyrics, lover, mistress, rival, innovation, traditional principle.

Eski maktablarda xalq og‘zaki ijodida mayjud hikmatlar, Ahmad Yugnakiy, Yusuf xos Hojib, Ahmada Yassaviy, Alisher Navoiy, sa’diy She’roziy, Jaloliddin Rumiy, So‘fi Olloyor, Sulaymon Baqirg‘oniy, Gulhaniy kabi adiblarning ibratli hikoyalaridan foydalanib kelganlar.

XX asrning boshlarida esa jadid mutafakkirlari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ishokxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy pedagogik faoliyatida ayni jarayonning faollashgani ko‘zga tashlanadi. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, Fitratning “O‘qu” darsliklarida tarbiyaviy ta’limning yuksak namunalarini ko‘ramiz. Jadid pedagoglarining an'anaviy pedagogikadan farq qiladigan xususiyatlari shundaki, ular ibratli hikoyalarni faqat Sharq adabiyotidagi emas, balki jahon adabiyotiga doir namunalaridan ham unumli foydalanganlar. Bir so‘z bilan Sharq va G‘arb pedagogika ilmini sintez qilganlar”

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Millatni ilmli ko‘rishni maqsad qilgan, mavjud o‘qitish tizimidan qanoatlanmagan Hamza bir necha marotaba bir necha joylarda millat bolalari uchun yangi usuldagagi maktablar ochadi. Yangi usuldagagi bu maktablarda yangi ta’lim talablari asosida ish olib borishga harakat qiladi. Bu esa o‘z samarasini beradi, ya’ni bu yerda ta’lim olayotgan bolalar o‘z savodlarini tez chiqarishadi. Biroq, Turkiston bolalarini savodli ko‘rishni isatamagan chor amaldorlari maktab faoliyatini to‘xtatishga harakat qilishar, ularni yopib, barcha kerakli o‘quv qurollarini musodara qilib yuborar edilar. Biroq bu urunishlar o‘z ahdiga sodiq Hamzaning harakatlarini to‘xtata olmaydi. Millatni o‘qishlikka da’vad etaverdi:

O‘qing, bo‘ling amonlar,

O‘qib bilgoning qolur.

Yashang uzoq zamonlar[6.112]

Shoir o‘z xalqiga ilm, ma’rifat, ziyo tarqatish uchun umrini ham moddiy mablag‘ini ham, kerak bo‘lsa jonini ham ayamagan. Ma’rifatparvar Hamza o‘zi tashkil qilgan barcha maktablari uchun yangi usuldagagi darsliklar yaratdi.

Otashqalb shoir o‘z xalqining ezgu tilaklariga tilakdosh, og‘ir kunlariga yelkadosh bo‘ldi. Hamza yurtining qayeriga bormasin,adolat o‘rnida razolat, ilm-ziyo, marifat o‘rnida tubanlik va jaholat ko‘rdi. Shu boisdan ham “qorq kun”- bit’at, jaholat va tanazzuldan ilm olish, ma’rifatni egallash, orqaligina ozod bo‘lish mumkin deydi. Buni quyidagi “Ilm ista” she’rida ham ko‘rishimiz mumkin.

Olamning xurshidi kundir, odamning xurshidi ilm,

Olamning zulmoti tundir, odaming nodor ilm. [5.109]

Shoir bu bilan ilmni shu darajaga ko‘taradiki, go‘yo ilm olamning hamda tabiatning gultoji hisoblanmish odamning quyoshiga o‘xshaydi. Har neki maqsad u bilan ro‘yobga chiqadi, shuning uchun g‘aflat bosgan ko‘zlarni oching va bedor bo‘lib ilm istang, deya da’vat etadi. Taraqqiyotga erishgan millatlarning so‘zlariga qulq soling, ular bu rivojlanishga ilm-ziyo bilan yetishdilar deya o‘z fikrini davom ettiradi shoir.

Ma’lumki, 1914-yillardan boshlab Hamzaning qalamiga mansub she’rlar turli xil gazetalarda, jumladan “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” kabilarda bosilib

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

chiqa boshlagan. Shu kabi gazetalarda bosilib chiqqan "Kitob" radifli she'rida jadid ma'rifat manbayi hisoblanmish kitobning ahamiyati haqida quyidagilarni yozadi;

Har ko'ngilning orzusi shul erur obihayot
Qadrini bilgan kishiga, shubhasiz, jondir kitob.

Har murodning boshidir, har muddaoning gavhari,

Har marazlarning shifosi ya'ni luqmondir kitob[6.34].

Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Kitob" she'rida kitobning ma'naviy va ijtimoiy ahamiyati, inson hayotidagi o'rni va qudrati ulug'lanadi. She'rning mavzusi kitobni ma'rifat, bilim va hayot manbai sifatida tasvirlashdan iborat bo'lsa, asosiy g'oyasi ilm olishga bo'lgan intilish, ma'rifatparvarlik va kitobga hurmat g'oyasidir.

She'rda kitob hayotning ajralmas qismi, insonni baxt va ezgulikka boshlovchi yo'lboshchi sifatida tasvirlanadi. Kitobning bir necha asosiy xususiyatlari quyidagicha talqin qilinadi:

Kitob "obihayot" va "jon" sifatida ulug'lanadi. Bu orqali kitobning hayotiy zarurati, insonning ma'naviy va intellektual rivojlanishidagi o'rni aks ettiriladi:

"Qadrini bilgan kishiga, shubhasiz, jondir kitob"[6.34].

Kitob har qanday intilish va maqsadning boshlang'ich nuqtasi, bilimning asosi sifatida ko'rsatiladi:

"Har murodning boshidir, har muddaoning gavhari,

Har marazlarning shifosi ya'ni luqmondir kitob"[6.34].

Bu yerda kitobning ilmiy va ma'naviy kasalliklarni davolovchi kuchga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Kitob qalbga nur va huzur bag'ishlovchi vosita sifatida tasvirlanadi. U inson qalbining qorong'i burchaklarini yorituvchi mohitob (oy nuri) sifatida talqin qilinadi:

"Ko'zni nuri, dil huzuri, dillaring darmonidir,

Har qorong'u dilga go'yo mohitobondir kitob"[6.34].

Kitob insonni jaholat va zillatdan qutqaruvchi qurol, himoya qalqoni sifatida tasvirlanadi. U balolardan saqlaydi va insonni ozodlikka yetaklaydi:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

"Har balodan asrag‘uchi eng muhim qimmat yarog‘,

Tiri vhahat, xanjari zillatga qalqondir kitob"[6.34].

She'r yoshlikda kitob bilan oshno bo‘lishning osonligi va muhimligini ta’kidlaydi. Yoshligida kitob bilan shug‘ullangan kishi o‘z ma’naviy va intellektual kamolotiga erishishi mumkinligi uqtiriladi:

"Har kishi yoshlikda qilsa ozgina g‘ayrat agar,

Tez zamonda oshno bo‘lmog‘i osondir kitob"[6.34].

She'rning asosiy g‘oyasi ma’rifatparvarlik bo‘lib, unda quyidagi fikrlar ilgari suriladi:

Kitob ma’naviy va bilimiylara taraqqiyotning asosi. Kitob insoniyatning intellektual taraqqiyotida asosiy rol o‘ynaydi. U ilm va ma’rifatga eltuvchi eng muhim vosita sifatida ko‘riladi. Hamza kitobni inson hayotini yorituvchi, murakkab muammolarni hal qiluvchi kuch sifatida ulug‘laydi.

Johillikka qarshi kurash. Kitob jaholat va qoloqlikka qarshi kuchli quroldir. Inson hayotini ilm va ma’rifat orqali yuksaltirish g‘oyasi butun she'r davomida aks etadi.

Yoshlikdagi ma’rifatning qadr-qimmati. She'r yoshlikda ilm olish va kitob o‘qishning ahamiyatini ta’kidlab, yoshlarni ma’rifatga chorlaydi. Bu orqali u kelajak avlodga saboq beradi.

Kitobga hurmat va ehtirom. Kitobga nisbatan hurmat va uni qadrlash she'rning asosiy g‘oyalaridan biridir. Hamza kitobni insoniyatning eng qimmatbaho boyligi sifatida ko‘rsatadi.

Ko‘rinadiki, "Kitob" she'rida Hamza Hakimzoda Niyoziy kitobni ilm-ma’rifatning, hayotning va taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida ulug‘laydi. U kitobni har bir inson uchun zarur bo‘lgan doston, qalbning shifosi va jaholatga qarshi kuch sifatida talqin qilib, yoshlikdan ilm olishga da’vat etadi. Bu she'r nafaqat adabiy, balki ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.K.Nurmuhamedov, Adabiyot nazariyasi, -Toshkent: 1979-yil, B-20.
2. O’zbek adabiyoti masalalari, -Toshkent: 1962-yil, B-220.
3. Dilrabo Mingboyeva, Timsollar tilsimi. Toshkent: Adabiyot 2022-yil, B-116.
4. Ulug’bek Hamdam. Badiiy tafakkur tadriji. Toshkent: 2002-yil, B-8.
5. Laziz Qayumov, Asr va Nasr, -Toshkent: 1975-yil, B-88.
6. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Uzilgan chechaklar, -Toshkent: 1986-yil,B-22
7. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Devon, -Toshkent: 1988-yil, B-55.
8. S.Mirzayev. XX asr o’zbek adabiyoti.Toshkent: B-128.
9. Abdulla Sher. Estetika.-Toshkent: O’zbekiston.2014. B-224.